



TURKISTON AVTANOM SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan fililali III bosqich “Tarix” fakulteti talabasi

Zayliddinova Odina

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston ASSRning tashkil topish jarayoni keng tarixiy manbalar va ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asr boshlarida mintaqada yuz bergan siyosiy jarayonlar, inqilobiy o‘zgarishlar va sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan bog‘liq omillar yoritiladi. Turkiston ASSRning tashkil etilishi hududiy boshqaruv tizimining qayta shakllanishiga, mahalliy aholi hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga hamda madaniy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Turkiston ASSRning tashkil topishi Markaziy Osiyo tarixidagi muhim bosqich sifatida baholanib, uning uzoq muddatli siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mintaqani chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston ASSR, sovet hokimiyati, inqilobiy jarayonlar, hududiy boshqaruv, Markaziy Osiyo, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, tarixiy taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и научного анализа рассматривается процесс образования Туркестанской АССР. Особое внимание уделяется политическим процессам начала XX века, революционным преобразованиям и установлению советской власти в регионе. Раскрывается влияние создания Туркестанской АССР на формирование системы территориального управления, а также на социально-экономические и культурные изменения в жизни местного населения. Кроме того, образование автономии оценивается как важный этап в истории Центральной Азии с анализом его долгосрочных политических и общественных последствий. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию истории региона.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, советская власть, революционные процессы, территориальное управление, Центральная Азия, социально-экономические изменения, историческое развитие.

Annotation: This article analyzes the formation of the Turkestan ASSR based on historical sources and scholarly approaches. It examines the political developments of



the early twentieth century, revolutionary transformations, and the establishment of Soviet authority in the region. The study highlights the impact of the creation of the Turkestan ASSR on territorial governance, as well as socio-economic and cultural changes affecting the local population. Furthermore, the autonomy is evaluated as a significant stage in Central Asian history, including an assessment of its long-term political and social consequences. The findings contribute to a deeper understanding of regional historical processes.

Keywords: Turkestan ASSR, Soviet authority, revolutionary processes, territorial governance, Central Asia, socio-economic change, historical development.

Kirish. Jahonda so'nggi yuz yillikdagi muhim siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga sotsializm va undagi boshqaruv tizimi bevosita o'z ta' sirini o'tkazdi. Oktyabr to'ntarishidan keyin Rossiyada bolsheviklarning hokimiyatga kelishi va yangi sovet hukumatiga asos solishi bilan dunyo bir-biriga qarshi ikki qutbga bo'lindi. Bunday murakkab, ziddiyatli tarixiy jarayonning faol ishtirokchilaridan biri Turkiston o'lkasi bo'lib, unga har jihatdan dahldor bo'ldi. Sovet hokimiyati qariyb 75 yil davomida mavjud bo'ldi. Taqdir taqozosi bilan hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham sovet tuzumida yashashga majbur bo'ldi. Mustabid sovet davlat boshqaruvi qaror topdi. Bolsheviklar mamlakatda yakka hukmron siyosiy kuchga aylandilar. Yangi akademik yo'nalish sovetologiya markazi olimlari va so'nggi yillardagi tarixchi olimlarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyoning so'nggi 130 yillik tarixida uning intellektual-madaniy, sotsial iqtisodiy va siyosiy hayotiga mustamlakacha boshqaruv uslubining ta'siri to'liq namoyon bo'lishi hamda mahalli xalqlar suveren boshqaruvdan chetlashtirilganligi ta'kidlanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarixchi olimlar tomonidan o'zbek xalqi davlatchilik tarixini xolislik bilan ilmiy tarzda yoritish ustuvor vazifaga aylandi. Ta'kidlash joyizki, O'zbekistonda, bir tomondan, sovet hokimiyati yillarida ma'lum ijobiy o'zgarishlar yuz berdi, respublika agrar-industrial o'lkaga aylandi; ikkinchi tomondan, mazkur hukmronlik o'zbek xalqi ma'naviyati va turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu borada sovet davlati boshqaruv tizimining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati to'g'risida, xususan, sovet hokimiyatining dastlabki chorak asrlik davri (1917-1941-yillar) haqida tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni murakkab voqealarini anglashga intilish jamiyatda o'tmishga hurmat va kelajakka ishonch ruhini shakllantiradi. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Buyuk tarixda hech narsa iza ketmaydi. U xalqlarning qonida,



tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir». O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida davlat boshqaruvi organlari faoliyatining obyektiv tahlili, aholi bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot natijalari mavjud muammolarni tizimli hal etishga ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar ham turli tarixiy bosqichlardagi boshqaruv tizimining mohiyatini xususan, Turkistonda sovet davlat boshqaruv tizimi borasida o'quv qo'llanmalari va darsliklar nashr etishning ham dolzarbligini taqazo etadi. SSSR nomli unitar markazlashgan davlatning tashkil topishi bilan barcha respublikalar to'g'ridan-to'g'ri markaziy ittifoqdagi organlar boshqaruviga tushib qoldilar. Partiya yuqori tabaqasining ko'rsatmalari milliy respublikalar kompartiyalari MKlari uchun mutlaqo majburiy tusga ega edi.

Turkiston ASSRda sovet hokimiyati mustahkamlangach, 1920-yilda Markaz qizil armiya kuchlari bilan Xiva xonligi va Buxoro amirligini ag'darib tashladi. 1920-1924-yillarda rasman RSFSR yoki SSSRga kirmagan Buxoro Xalq Sove Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi faoliyat ko'rsatdi. Tarixdan ma'lumki, sovet davrida O'zbekistonda iqtisodiyot bir tomonlama rivojlantirilgan edi. Asosan, xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan bunday yondoshuv Markaz tomonidan belgilangan edi. Ma'naviy hayotning barcha jabhalarida kommunistik mafkura hukmronlik qilar, Sovet Ittifoqida yashovchi boshqa xalqlar singari o'zbek halqining milliy urf odatlari va an'analari inkor qilinib barcha vositalar "yagona sovet xalqi"ni kommunistik onglik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. Siyosiy hokimiyat esa kommunistik partiya qo'lida bo'lib, respublikalardagi birinchi kotiblar KPSS NIK Siyosiy byurosi Kremlida chiqaradigan qarorlarni bajarishga majbur qilingan edi.

Asosiy qism. Turkiston azaldan mintaqa xalqlarining yagona va umumiy vatani bo'lgan. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an'analari jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo'lib ketgan edilar. Buxoro va Xorazm respublikalari 1924-yil oxirigacha mustaqil davlat bo'lganlar. Turkiston mintaqasi yagona hudud, tarixiy zamin, o'z xo'jaligi, an'analari, dini, tili va madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. Turkistondagi davlatlarning har birida yuz yillar davomida turkiy xalqlar: o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz shuningdek, tojik xalqi azaldan yashagan. Mintaqa xalqlari Turkiston tuprog'ini qadimdan o'zlarining asl vatanlari deb bilganlar. Turkiston ASSRning e'lon qilinishi 1918 yil 30-aprel kuni Toshkentda o'tkazilgan V Turkiston Sovetlar qurultoyida yuz berdi. [1] Bu tarixiy voqea Sovet Rossiyasining mustamlakachilik siyosatining yangi



bosqichiga aylanib, Turkistonni to'liq markaziy hukumat nazoratiga olishga qaratilgan strategiyaning bir qismi bo'ldi. Turkiston ASSR o'zida hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston janubining ba'zi qismlarini o'z ichiga olgan, sobiq Turkiston general-gubernatorligi va xonliklar hududlari bilan bog'liq bo'lgan hududni tashkil etdi. Bu tuzilma tashqi jihatdan "sotsializm", "xalqaro do'stlik" kabi shiorlar bilan bezatilgan bo'lsa-da, amalda Moskvadan boshqarilgan va mahalliy aholi manfaatlarini ko'plab hollarda hisobga olinmagan. Rus tarixchisi S.L. Utchenko bu hodisani "kolonial siyosatning sotsializmga o'ralgan shakli" deb atagan. Bu g'oya, sovet boshqaruvi va millatlar tengligi haqidagi rasmiy shiorlarga qaramasdan, real siyosatda markaziy hokimiyatning nazoratini mustahkamlashga qaratilgan edi. [2] Turkiston ASSRning tashkil etilishi ortidan bir qator iqtisodiy va siyosiy vazifalar belgilandi. Inqilob va fuqarolar urushi natijasida izdan chiqqan iqtisodiyotni tiklash, agrar islohotlar o'tkazish, sovet hokimiyatini mustahkamlash, ishlab chiqarish vositalarini milliy lashtirish va iqtisodiy markazlashuvni ta'minlash kabi masalalar ustuvor bo'ldi. O'zbek tarixchisi M. Haydarovning fikriga ko'ra, Turkiston ASSR tashkil etilishi sovet markaziy hukumatining mintaqadagi mafkuraviy va iqtisodiy hukmronligini ta'minlash vositasi bo'lgan. [3]

Bundan tashqari, tarixchi A.M. Dubrovin o'z asarida Turkiston ASSRning siyosatidagi nomutanosibliklarni ta'kidlab, mintaqada "xalqaro do'stlik" faqat hujjatlarda mavjud bo'lganini yozadi. Zamonaviy o'zbek tarixchisi A. Mavlonov esa bu davni mahalliy jamiyat bilan to'qnashuv davri sifatida tasvirlaydi, bunda sovet ideologiyasi mahalliy tizimga kuch bilan kirib borgan. [4] Siyosiy boshqaruv tizimi, birinchi navbatda, sovetlar va inqilobiy qo'mitalar orqali amalga oshirilgan bo'lsa-da, haqiqiy hokimiyat kommunist partiyasining qo'lida edi. Markazdan yuborilgan rus kadrlarining ustunligi mahalliy xalqning sovet boshqaruviga nisbatan noroziligini kuchaytirdi. [5] Siyosiy boshqaruv tizimi mahalliy ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini aks ettirishdan yiroq bo'lib, markaziy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan Turkiston ASSR Sovet iqtisodiy modelini o'rnatishga intildi. Paxtachilik va sug'orish tizimi markaziy rejaga moslashtirildi, ammo bu jarayon mintaqaning an'anaviy iqtisodiy tuzilmasi bilan to'qnashdi va ko'plab qiyinchiliklarga olib keldi. Bu davrning o'rganilishi sovet boshqaruv tizimining mohiyatini, uning markaziy hukmronlik tamoyillarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda Turkiston ASSRda olib borgan siyosiy yo'nalishlaridan biri "korenizatsiya" edi. Bu siyosat orqali mahalliy millat vakillarini rahbarlik lavozimlariga tayinlash, milliy tillarda ta'limni rivojlantirish va sovet mafkurasini joriy etish maqsad qilingan. Garchi rasmiy doiralarda bu siyosat ijobiy



Learning and Sustainable Innovation

qadam sifatida targ'ib qilingan bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab cheklovlar, kadrlar yetishmovchiligi va markazdan boshqaruvning kuchliligi uning to'laqonli amalga oshishiga to'sqinlik qilgan. [6] Tarixiy tadqiqotlarda M.T. Haydarov, A. Atajonov kabi olimlar milliy kadrlarning yetishmovchiligi va ularning kommunistik mezonlar asosida baholanishi natijasida yuzaga kelgan muammolarni ko'rsatgan. Rus tarixchisi A.N. Yakovlev esa "korenizatsiya" siyosatini markazlashtirilgan boshqaruv vositasi deb baholaydi. [4] Holzwarth esa bu siyosatni ikki tomonlama inklyuzivlik va imperial nazorat vositasi sifatida talqin qiladi.

Korenizatsiya siyosati bilan birga boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa qishloq joylarda oziq-ovqat tanqisligi, majburiy mehnat, elita qatlamlarining siyosiy chetlatilishi, mahalliy aholining noroziligi kabi holatlar Bosmachilik harakatining kuchayishiga sabab bo'ldi. [2] Bosmachilik bu milliy-ozodlik kurashi sifatida maydonga chiqqan va sovet mustamlakachiligiga qarshi turgan qurolli harakat edi. Mintaqa xalqlari yagona va bir degan g'oya (turkistonlik) avloddan-avlodga o'tib, XX asr 20-yillarida Turkistondagi milliy ziyolilar va millat yetakchilarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda amaliy faoliyatlarida aks etgan. Mustabid sovet rejimi va bolsheviklar uchun Turkiston mintaqasini bo'lib tashlab, uni idora qilis qulay edi. Shuning uchun ham dastlab Turkiston o'lkasiga sovet "avtonomiyasi" berildi, ya'ni Rossiya Sovet Federatsiyasi tarkibida 1918-yil 30-aprelda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi. Bu paytda Buxoro amirligi va Xiva xonligi (1920-yildan boshlab Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi) mustaqil davlatlar edi. So'ngra bolsheviklar tomonidan Turkiston mintaqasini parchalab tashlash uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rildi. Bu jarayon ayrim uzilishlar bilan 7 Yil davom etdi. Rossiyada fuqarolar urushi va chet el harbiy intervensiyasiga qarshi kurash yillarida (1918-1922- yillar) Rossiya imperiyasining sobiq hududida mustaqil davlatlar (Polsha, Finlyandiya), mustaqil milliy respublikalar (Litva, Latviya, Estoniya, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston), sovet respublikalari (Belorusiya SSR va b.), muxtoriyatli hukumatlar (Turkiston Muxtoriyati, Alash Orda, Boshqirdiston Muxtoriyati va b) tashkil topdi. Bundan tashqari, RSFSR tarkibida turli avtonom sovet respublikalari (Turkiston ASSR, Qirg'iziston ASSR, Qozog'iston ASSR) va b.) bor edi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovet Rossiyasining bevosita hududiy tarkibiga kirmagan bo'lsa ham, uning ta'siri va nazoratida mavjud bo'lib turgan Turkiston mintaqasidagi milliy davlatlar (Buxoro amirligi, Xiva xonligi; 1920-yilda ularning o'rnida tashkil qilingan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mavjudligi bu davrdagi real hodisa edi. Yuqorida nomlari tilga olingan davlatlar va respublikalar



bilan sovet Rossiyasi o'rtasidagi munosabatlar murakkab xarakterda bo'lgan.[3]

Sovet hukumatining dastlab e'lon qilgan rasmiy hujjatlaridan biri "Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi" (1917-yil 2-noyabrda qabul qilingan) yangi tashkil qilingan sovet Rossiyasi Xalq Komissarlari Soveti o'z faoliyatida "Rossiya xalqlarining o'z taqdirini o'zlari erkinlik bilan belgilashlari, hattoki, ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqini" asos qilib olganliklari tantanavor ravishda e'le qilingan bo'lsa-da, aslini olganda, bolsheviklar Polsha va Finlyandiyadan boshqa xalqlar (Ukraina, Kavkaz, Turkiston, Boltiqbo'yi va b.)ga mustaqillik berishni xohlamaganlar. Tadqiqotchi O.Chistyakov to'g'ri ta'kidlaganidek, RSFSR bilan boshqa sovet respublikalari o'rtasida bir tomondan "mustaqil" aloqalar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan ular sovet Rossiyasi izmi bilan ish ko'rgan. Chunki bu respublikalarning vakillari Butunrossiya Sovetlari syezdlarida ishtirok etgan, RSFSR qonunchiligi bu respublikalar hududlarida u yoki bu darajada kuchga ega bo'lgan. Bu respublikalardagi hukmron siyosiy partiya kommunistik partiya Rossiya Kommunistik partiyasi-RKP (b) Markaziy Komitetiga bo'ysungan. Bu respublikalarning armiyasi yagona qizil armiya tarkibiga, byudjeti RSFSR byudjeti hisobiga kirgan.[3]

Rossiyaning hududi va aholisi (100 mln.kishidan ko'p) qizil armiya (5.5 mln. kishi) ning miqdorini bu "mustaqil" yoki avtonom sovet respublikalarining haqiqiy holati va kuchi bilan solishtirish qiyin. Sovet federatsiyasining asosiy qoidalari 1918-yil 10-18-yanvarda bo'lgan Butunrossiya Sovetlarining uchinchi syezdida yana bir marta e'lon qilindi. Ezilgan va ekspluatatsiya qilingan mehnatkashlar huquqlari Deklaratsiyasida ko'rsatilishicha, Rossiya Sovet Respublikasi ozod millatlarning erkin ittifoqi asosida milliy Sovet Respublikalari Ittifoqi federatsiyasini tashkil etadi. Bunda Rossiyadagi har bir millat o'z respublikasi bo'lishi uchun huquqlarga ega bo'lishi mumkin.[5]

Moskvalik tadqiqotchi A.Vdovin yozganidek, bu deklaratsiyani amaliyotda qo'llash tajribasi butunlay boshqacha bo'ldi. 1918-yil aprel oyida Turkiston Sovet Respublikasini tuzish bilan birga kelgusida federatsiya sub'ekti sifatida milliyhududiy avtonomiya (avtonom respublika yoki oblast) tashkil etish ham ko'zda tutildi. Ma'lumki, sovet rejimi tomonidan Turkiston mintaqasida faoliyat ko'rsatgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918-yil fevralda, Alash-Orda Muxtor hukumati 1920-yil martda, Boshqirdiston Muxtoriyati hukumati 1920-yil iyunda tugatildi. Bundan tashqari, 1920-1921-yillarda Ukraina, Ozarboyjon, Gruziya. Armaniston kabi mustaqil milliy respublikalar tugatilib, ularning o'rnida sovet respublikalari tashkil qilindi. Dog'iston va Chechenistonda faoliyat ko'rsatgan Shimoliy Kavke amirligi, Tog'li Respublika (ruscha hujjatlarda Gorskaya Respublika) ham 1920-yillarda bolsheviklarning harbiy kuchlari tomonidan ag'darib tashlandi. Faqat Boltiqbo'yida



faoliyat ko'rsatayotgan mustaqil "burjua Litva, Latviya, Estoniya davlatlari" 1940yilgacha o'z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. 1922-yil 30-dekabrda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil topdi. Sovet davridagi tarixiy adabiyotlarda, xususan, XX asr 50-80-yillarida yaratilgan tadqiqotlarda keltirilgan fikrlarga qarama-qarshi o'laroq shuni ta'kidlash lozimki, yangi sovet davlati SSSRning asoschisi va g'oyaviy tashkilotchisi V.L.Lenin bo'lmay, balki bu davlat I.V.Stalin g'oyalari asosida hamda bevosita uning rahbarligida tashkil qilingan (SSSRda dastlab to'rt respublika: RSFSR, Ukraina SSR, Belorussiya SSR va Zakavkaze SFSR kirgan.) SSSRning tashkil qilinishi bilan Turkiston o'lkasining taqdiri uzil-kesil hal qilindi. 1920-yil boshlarida Turkiston komissiyasi Turkiston ASSRni milliy til belgisiga qarab, bo'lib tashlash masalasini qo'ygan edi. Turkiston Komissiyasining bu tezislarga qarshi chiqqan T.Risqulov, N.Xo'jayev va boshqa milliy yetakchilar "panturkizm", "panislomizm", "burjua millatchiligi" va "o'ng og'machilik"da ayblandi. Bu haqda sal oldin to'xtalib o'tildi.[1]

V.I.Lenin 1920-yil may oyida Turkistonni Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmeniyaga bo'lingan xaritasini tuzishni mutasaddi shaxslarga topshirgan. Shuning uchun 1920-yil avgustda Turkiston ASSRning Yettisuv viloyati, Sirdaryo va Zakaspiy viloyatlarining bir qismi yangi tashkil qilingan RSFSR tarkibidagi Qirg'iziston ASSR (aslida Qozog'iston ASSR) ixtiyoriga berilgan. 1920-1924-yillarda mustaqil Buxoro va Xorazm respublikalarini mavjud bo'lib turishi Markazning vaqtinchalik murosa yo' lini tanlaganligidan boshqa narsa emas edi. Aslini olganda, Sovet hukumatining rahbari V.L.Lenin sovet respublikalari asosida SSSRni tashkil qilish prinsiplari to'g'risida 1922-yil kuzida to'xtalar ekan, "qo'shilishdan oldin ajralish kerak", deb masalani aniq qo'ygan edi.[6]

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://shosh.uz/turkiston-avtonom-sovet-respublikasi-turkiston-respublikasi-2/>
2. <https://soff.uz/product/tarix-turkiston-assrning-tashkil-topishi>
3. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/11586>
4. Shamsutdinov. R, Mo`minov H. – “O`zbekiston tarixi” Sharq nashr, 2010, 387b
5. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. “O`zbekiston tarixi” “Iqtisod-moliya” nashr 2006.
6. Matyaqubov Xalil Hayitbayevich. O`zbekistonning enh yangi tarixi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent 2021.